XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 31 - mart VI-36-32-4-57-K/22 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumanidagi “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “Aerodrom, (Tepaguzar)”, “O‘zbekiston” hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Dehqonobod tuman hokimi va Dehqonobod tumanidagi “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “Aerodrom, (Tepaguzar)”, “O‘zbekiston” hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dehqonobod tumanidagi “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “O‘zbekiston” hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi Dehqonobod tuman hokimi hamda “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “O‘zbekiston” hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan berilgan takliflar ma’qullansin.

2. Dehqonobod tumanidagi “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “O‘zbekiston”

hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla ro‘yxati hamda uning nomi 1-ilovaga, yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini chegarasi va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Dehqonobod tumanidagi “Aerodrom, (Tepaguzar)” mahalla fuqarolar yig`ini negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish masalasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga mos kelish yoki kelmasligi qayta o`rganilib chiqilsin.

4. Dehqonobod tumanidagi mahalla fuqarolar yig`inlari soni 54 ta deb yuritilsin.

5. Dehqonobod tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘iga:

- yangi tashkil etilayotgan mahallaning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

6. Dehqonobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Usmonov), Dehqonobod tuman moliya bo‘limi mudiri (F.Nurmatov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

7. “Dehqonobod ovozi” gazetasi bosh muxarriri (E.Maxsumov), Dehqonobod tuman hokimligining axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi (O.Qo‘ldoshov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashi doimiy komissiyasi va Dehqonobod tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Aliqulov.Z.X**

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman
Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-36-32-4-57-K/22-son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tumanidagi “Gumbuloq”, “Duob”, “Ingichka”, “O‘zbekiston” hamda “Oqqishloq” mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati va uning nomi

T/r	**Bo‘linadigan mahallaning nomi**	**Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi**	**Izoh**
1	Gumbuloq	Gumbuloq	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi, istisno tarzida borish qiyin bo‘lgan va tog‘li hudud bo`lganligi
		Darxon	
2	Duob	Duob	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi
		Vatanparvar	
3	Ingichka	Ingichka	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi
		Zafarobod	
4	O‘zbekiston	O‘zbekiston	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi
		Yangi O‘zbekiston	
5	Oqqishloq	Oqqishloq	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi, istisno tarzida borish qiyin bo‘lgan va tog‘li hudud bo`lganligi
		Guliston	

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman
Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-36-32-4-57-K/22-son qaroriga
2-ilova

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Darxon mahallasi

Markazi: Darxon qishlog‘i

Aholi: 1787 ta

Oila: 452 ta

Chegarasi: Darxon qishlog‘i.

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Vatanparvar mahallasi

Markazi: Degmaron qishlog‘i

Aholi: **2713** ta

Oila: **563** ta

Chegarasi: Degmaron qishlog‘i, Chuqursoy qishlog‘i, Qamchibuloq qishlog‘i, Tersoqar qishlog‘i, Qaynarbuloq qishlog‘i,

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Zafarobod mahallasi

Markazi: Ingichka qishlog‘i

Aholi: **2070** ta

Oila: **474** ta

Chegarasi: Ingichka qishlog‘i, Yetimtog‘ qishlog‘i, Jartepa qishlog‘i, Duob qishlog‘i, Ko‘kbuloq qishlog‘i, Xidir qishlog‘i, Zarangbuloq qishlog‘i, Govxona qishlog‘i

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Yangi O‘zbekiston mahallasi

Markazi: Qorashina qishlog‘i

Aholi: **2118** ta

Oila: **514** ta

Chegarasi: Qorashina qishlog‘i, Yangi O‘zbekiston qishlog‘i, Konsoy qishlog‘i.

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Guliston mahallasi

Markazi: Shaxshor qishlog‘i

Aholi: **1076** ta

Oila: **287** ta

Chegarasi: Shaxshor qishlog‘i